Rashidov Sharof Rashidovich



Rashidov Sharof Rashidovich

(1917 yil 6 noyabr, Jizzax shahri – 1983 yil 31 oktabr, Toshkent)

(1959-1983)

Davlat va jamoat arbobi, yozuvchi. Jizzax pedagogika texnikumini (1935), Samarqand Davlat universitetining filologiya fakultetini tugatgan (1941). *Samarqand viloyati* gazetasida mas'ul kotib, muharrir o'rinbosari va muharrir (1937-41, 1943). 2-jahon urushi qatnashchisi (1941 yil noyabr -1942). O'zbekiston Kommunistlar partiyasi Samarqand viloyat komiteti kotibi (1944-47), *"Qizil O'zbekiston"* gazetasi muharriri (1947-49), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi raisi (1949-50). O'zbekiston Oliy Soveti Prezidiumi raisi (1950-59). O'zbekiston KP MKining 1-kotibi (1959-83). KPSS MK Siyosiy byurosi (Prezidiumi) a'zoligiga nomzod (1961-83). 2 marta Mehnat qahramoni (1974, 1977).

Sh.Rashidov adabiyotga shoir sifatida kirib keldi va 1-yirik asari – ***"Chegarachi"*** dostoni 1937 yilda nashr qilindi. Fashizmga qarshi kurash tuyg'ulari bilan sug'orilgan *"Qahrim"* she'rlar to'plami 1945 yilda chop etildi.

Rashidov davrning muhim hisoblangan muammolaridan biri – qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish mavzuida *“G‘oliblar”* qissasini (1953) yozdi. 2-jahon urushi yillarida front orqasida qahramonona mehnat qilgan xalq hayotiga bag‘ishlangan *“Bo‘rondan kuchli”* (1958) va *“Qudratli to‘lqin”* (1964), *“G‘oliblar”* (1972) romanlarini yaratdi. Sh.Rashidov xalq va mamlakat hayotida ro‘y bergan voqealarni davlat va partiya arbobi sifatida mushohada etib, adabiyotning badiiylik mezonlaridan ko‘ra g‘oyaviylik tamoyiliga ko‘proq e’tibor berdi. Hind xalq afsonasi asosida yozilgan *“Kashmir qo‘shig‘i”* lirik qissasi (1956) Sh.Rashidov ijodida alohida o‘rinni egallaydi.

Sh.Rashidov respublikaga rahbarlik qilgan yillarda qator bunyodkorlik ishlari bilan birga qishloq xo‘jaligi yerlaridan ekstensiv foydalanish oqibatida ekologik vaziyatning buzilishi, paxta yakkahokimligining qaror topishi kabi noxush holatlar ham yuz berdi. Sh.Rashidov vafotidan so‘ng Markaz tomonidan totalitar tuzumning barcha kirdikorlari unga yuklanib, 80 yillar qatag‘onida nohaq qoralandi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Sh.Rashidovning nomi oqlandi va u Vatanimiz tarixidagi munosib o‘rnini egalladi. Prezident *I.A.Karimov*ning tashabbusi bilan Sh.Rashidov tavalludining *75 yilligi* nishonlandi. Sh.Rashidov Toshkentdagi Xalqlar Do‘stligi saroyi me’moriy majmuasi uchun qurilish g‘oyasining muallifi va ijodiy rahbari sifatida vafotidan so‘ng Alisher Navoiy nomidagi *O‘zbekiston Davlat* mukofoti bilan taqdirlangan (1994). Sirdaryo viloyatidagi tuman, Toshkent va Jizzax shahridagi ko‘chalar, maktablar, mahallalarga uning nomi berilgan. Jizzaxda Sh.Rashidov haykali va muzeyi bor. U *“Chig‘atoy”* qabristoniga dafn etilgan.

2023-12-20 11:28:28